

**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Iqtidorli talabalarning
ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limining 2025-yil uchun**

HISOBOTI

Toshkent shahri

29-dekabr 2025-yil

Hozirda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi ma'lumotlar bazasiga 51 nafar iqtidorli talabalar kiritilgan.

Hisobot yili davrida "Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi" tomonidan quyidagilar amalga oshirildi.

Akademiyada 1-kursga qabul qilingan talabalar orasidan har tomonlama qobiliyatli va iqtidorlilari saralab olindi.

Akademiyada yo'lga qo'yilgan "Ustoz-shogird" an'anasiga ko'ra har bir iqtidorli talabaning ilmiy faoliyatini yuritish va takomillashishi uchun tajribaga ega va ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilarga biriktirildi.

Yil davomida iqtidorli talabalar o'zlarining ilmiy-ijodiy ishlari bilan akademiyada o'tkazilgan va Respublika miqyosida tashkil etilgan 50 dan ortiq tadbirlar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etishdi.

Jumladan, "14-yanvar Vatan himoyachilari kuni", "8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni", "Navro'z" umumxalq bayrami, "9-may Xotira va qadrlash kuni", "30-iyun Yoshlar kuni", "1-sentabr Mustaqillik bayrami", "1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuni", "21-oktabr O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun", "8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kun" kabi davlat tadbirlari hamda bir qancha hamkor tashkilotlar bilan rasmiy va boshqa uchrashuv tadbir dasturlari doirasida faol ishtirok etildi.

**Iqtidorli talabalarining 2025-yilda (yanvar oyidan dekabr oyigacha) erishgan
yutuqlari respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlardagi ishtiroki**

1. Joriy yilning 17-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan O'zDXA Xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi

- 4-kurs talabalari Haydarov Islom va Karimova Mohinur "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.
2. 2025-yil 20-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan O'zDXA "Kasbiy ta'lim" ta'lim yo'nalishi 4-kurstalabasi Sattarova Dildora, 1-kurs tayanch doktoranti Paxrudinova Karomat "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.
 3. 15-aprel "Madaniyat va san'at xodimlari kuni" munosabati bilan fidokorona mehnat qilayotgan soha vakillarini rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining bir guruh talabalari To'xtasinova Gulira'no 4-kurs XJR ta'lim yo'nalishi, Kamalova Samira 2-kurs XJR ta'lim yo'nalishi, Xoshimova Gulasal 2-kurs Professional ta'lim yo'nalishi, Agzamova Sevara 1-kurs San'atshunoslik ta'lim yo'nalishi, Uzoqboyev Sunnatillo 3-kurs XJR ta'lim yo'nalishi "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.
 4. Joriy yilning 22-may kuni Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi milliy raqs ijrochilari tanlovining g'oliblari e'lon qilindi. Bunda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi Shavkatova Sabrina 1-o'rinni qo'lga kiritdi.
 5. Joriy yilning 26-may kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga binoan, fidokorona mehnati va ijodiy yondashuvi bilan ajralib turgan yosh iste'dodlarni rag'batlantirish maqsadida, akademiyaning bir guruh talabalari Abaqulov Asadbek Xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi, Revenko Zlata Xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi, Toshkenboyeva Rayhona Xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.
 6. 2025-yil 30-may kuni bo'lib o'tgan "Madaniyat vaziri kubogi" an'anaviy musobaqasida Basketbol sport turi bo'yicha akademiya talabalaridan tashkil topgan jamoa faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

7. 2025-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug‘iga binoan, mustaqilligimizning 34 yillik bayrami munosabati bilan fidokorona mehnatlarini rag‘batlantirish maqsadida, “Zamonaviy raqs” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Utelova Aysha “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.
8. Joriy yilning 24-noyabr kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Ushbu tanlovga kelib tushgan jami 22 ta ilmiy maqolalar Hakamlar hay’ati tomonidan shaffoflik va oshkoralik bilan o‘rganib chiqildi hamda quyidagilar tanlov g‘oliblari deb topildi:
 - 1-o‘rin – Xojiyev Ramizxon San’atshunoslik ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.
 - 2-o‘rin – Nomonova Dilyora Xoreografiya jamoalari rahbari ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.
 - 3-o‘rin – Xamraboyeva Farangiz Xoreografiya jamoalari rahbari ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

**Talabalarning Xalqaro miqyosdagi ko‘rik-tanlov
va festivallardagi ishtiroki**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Andijon davlat Pedagogika instituti hamda Musiqa va amaliy san’at markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Yosh iqtidorlar-2025” II xalqaro ko‘rik- tanlovida 3-kurs Kasbiy ta’lim yo‘nalishi talabasi Talxatova Dano ishtirok etib, Gran-Pri bilan taqdirlandi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Andijon davlat Pedagogika instituti hamda Musiqa va amaliy san’at markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Yosh iqtidorlar-2025” II xalqaro ko‘rik- tanlovida 3-kurs XJR ta’lim yo‘nalishi talabasi Nazarova Eliza ishtirok etib, I darajali diplom bilan taqdirlandi.
3. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova 26-oktabr kuni “Jadidlar” xalqaro ilmiy-tadqiqot assotsatsiyasi hamda

Turkiya, Argentina, Rossiya va Qozog‘istonning nufuzli ijodiy va ilmiy tashkilotlari hamkorligida o‘tkazilgan “Millatlar mozaikasi – Sakkiz davlat, bir sahna, bir qalb” xalqaro festivalida munosib ishtirok etdi va festivalning I darajali diplomi hamda “Do‘stlik elchisi” faxriy ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

4. 2025-yil 7-fevral kuni 1-kurs magistranti Karamova Ra‘no Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida o‘tkazilgan “Kelajak qanoti” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovida o‘zining “O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Po‘lat Madreymov hayotiga chizgilar” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, ko‘rik-tanlovning ko‘krak nishoni, maxsus esdalik statuetkasi hamda sertifikati bilan taqdirlandi.
5. Joriy yilning 9-mart kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Professional ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi Talxatova Dono O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bo‘lib o‘tgan “Astana stars” (“Ostona yulduzlari”) xalqaro festivalida yakkaxon raqs ijrosi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran-pri sohibasi bo‘ldi.
6. Xoreografiya jamoalari rahbari 4-kurs talabasi Jahongir qizi Madinabonu 9-mart kuni “Sciyentific Publiciation” xalqaro ilmiy matbuot markazi tomonidan ilmiy izlanuvchilar o‘rtasida tashkil etilgan “Yuksak xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida “Lazgi muhabbat va qalb timsoli” mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etib, “Yuksak xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.
7. Joriy yilning 15-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Karomat Paxrudinova Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovi doirasida tashkil etilgan, “Eng yaxshi xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida “O‘zbek milliy raqs san’ati” nomli ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib, tanlovning maxsus ko‘krak nishoni, sertifikat va tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.
8. Joriy yilning 28-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Professional ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Trashkova Yelizaveta O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bo‘lib o‘tgan “Astana stars” (“Ostona yulduzlari”) Xalqaro festivalida yakkaxon raqs ijrosi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran-pri sohibasi bo‘ldi.

9. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 4-kurs talabasi Abdug'offor Kuchkarov joriy yilning 6-12-oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'lib o'tgan "Molodoy balet mira" Yuriy Grigorovichning X xalqaro tanlovida faxrli 3-o'rin g'olibi bo'ldi.
10. Joriy yilning 26-oktabr kuni bo'lib o'tgan "Dance Battle" xalqaro raqs tanlovi loyihasi doirasida "Assalomu alaykum Toshkent" xalqaro raqs tanlovida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Ramizxon Xojiyev muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran Pri sohibi bo'ldi hamda tanlovning diplom, statuetka, qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.
11. Joriy yilning 28-noyabr kuni Rossiyaning Ufa shahrida bo'lib o'tgan "Raqs eksprimenti" VI ochiq butunrossiya xoreografiya tanlovida akademianing bir guruh talabalari ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Abakulov Asadbek Gran PRI, Xaydarov Islom, Olimjonova Lazokatxon I o'rin, Xursanboyeva Nozima, Miretskaya Vladislava II o'rin, Budanova Angelina III o'rin.
12. 2025-yilning 15-dekabr kuni O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari hamkorligida "Seul" Koreys madaniyat markazida "Tashkent music Festival" xalqaro tanlov-festivali bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Zamonaviy raqs" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Budanova Angelina Gran-Pri sohibasi bo'ldi va shu bilan bir qatorda, Birlashgan Arab Amirliklarida 2026-yilda o'tkaziladigan "Dubai music festival" xalqaro tanlovida bepul ishtirok etish uchun yo'llanmani ham qo'lga kiritdi.
13. Joriy yilning 21-dekabr kuni "Sciyyentifik Acedemy" ilm-ma'rifat markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 82-son buyrug'iga asosan, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi Tilabova Durdonaxon Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovining "Ta'lim sohasidagi fidoyi xizmatlari uchun" esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

14. Joriy yilning 21-dekabr kuni “Sciientifik Acedemy” ilm-ma’rifat markazining 2025-yil 18-iyundagi 65-son buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Hojiyev Ramizxon Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik- tanlovining “Yuksak ehtirom” xalqaro esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.
15. Joriy yilning 25-dekabr kuni Qirg‘iziston Respublikasining Chimkent shahrida “Bir she’r, bir sahna” nomli xalqaro adabiy tanlov bo‘lib o‘tdi. Ushbu tanlovda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nomini munosib himoya qilib, “San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi Iroda Ahmadova hamda 4-kurs talabasi Jamshid Mirsoliyev faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari

1. 2024/2025-o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi XJR ta’lim yo‘nalishi rus guruhi 4-kurs talabasi Abakulov Asadbekga, Isom Karimov nomli davlat stipendiyasi XJR ta’lim yo‘nalishi o‘zbek guruh 4-kurs talabasi Haydarov Islom Ilhom o‘g‘liga topshirildi.
2. Akademiya Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi tavsiyasi va akademiya rektorining 2025-yil 15-sentabrdagi 04-04/66-T-son buyrug‘iga asosan, 2025/2026-o‘quv yili uchun “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi maxsus stipendiya” Xoreografiya jamoalari rahbari ta’lim yo‘nalishi, o‘zbek guruhi, 3-kurs talabasi Abdullayeva Gulchehra Sa’dulla qiziga berildi.

Ilmiy nashrlar

1. Joriy yilning 15-aprel kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida “San’at olami – talabalar nigohida” mavzusida II Respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda Trashkova Yelizaveta, Talxatova Dono, Tursunova Musharraf, Nomonova Dilyora, Mirsoliyev Jamshidlar o‘z ma’ruzalari bilan faol ishtirok etishdi. Bundan tashqari 40 dan ortiq iqtidorli talabalar o‘z maqolalari bilan ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi.

2. O'zDXA "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalarining maqolalari "Oriental art and culture" jurnalining dekabr oyi sonida e'lon qilindi.
3. O'zDXA 4-kurs talabasi Nomonova Dilyoraning 5 dan ortiq maqolalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami va jurnallarda chop etildi.
4. O'zDXA 3-kurs talabasi Trashkova Yelizavettaning 10 dan ortiq ilmiy maqolalari Respublika va xalqaro ilmiy jurnallarida chop etildi.
5. O'zDXA 3-kurs talabasi Talxatova Danoning 5 dan ortiq maqolalari xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plamlari va ilmiy jurnallarda chop etildi.
6. O'zDXA 2-kurs magistranti Karamova Ra'noning 10 ga yaqin maqolalari xalqaro va respulika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlari hamda ilmiy-ommabop jurnallarda nashr etildi.

Bundan tashqari yana ko'plab talabalarning maqolalari xalqaro va Respublika miqyosidagi OAK ro'yxatidan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilib kelinmoqda.

Akademiya rasmiy sayti uchun talabalar tomonidan tayyorlangan lavhalar

1. Akademiyaning ijtimoiy tarmoqlari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, akademiya talabalari tomonidan turli mavzulardagi video roliklar, akademiya bo'layotgan yangliklar, konsert dasturlari yoritib kelinmoqda. Bu borada akademiyaning 4-kurs "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi talabalari Mirsoliyev Jamshid, Qodirov Sherzod hamda 2-kurs XJR ta'lim yo'nalishi talabasi Shamuratova Aymekenlar faol ish olib bormoqda. Talabalar akademiya bo'layotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, ilmiy-ijodiy tadbirlarni keng yoritish maqsadida, o'z video roliklari bilan akademiya matbuot xizmatiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Akademiyaning "Raqs olami" gazetasida ham talaba-yoshlar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlari doimiy tarzda yoritib kelinmoqda.

Bo'lim boshlig'i



SH.Xudoynazarova